

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHILARINING MA’NAVIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH

Sheranova Maryam Bazarbayevna

Jizzax Davlat pedagogika universiteti

Umumiy pedagogika kafedras v.b.i dosentii (PhD)

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada Boshlang‘ich ta’lim umumta’lim maktablarining bosh bo‘g‘ini bo‘lgani sababli ana shu jarayonda o‘quvchi shaxsining mukammal rivojlanib borishiga ko‘proq e’tibor berish lozimligi haqida, Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining axborot kompetentligini rivojlantirish asosini: insonparvarlashtirish va shaxs rivoji g‘oyalarini rivojlantirish haqida so‘z boradi.*

***Kalit so‘zlar:** o‘qituvchi, kompetentlik, rivojlantirish, shakllantirish, yondashish, ta’lim sifati, faoliyat, sifat.*

O‘zbekiston mustaqillikka erishgan kundan boshlab o‘tgan qisqa vaqt ichida o‘zbek xalqi siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalarda katta yutuqlarga erishdi; o‘z tarixiga yangicha tafakkur asosida yondoshish, ulug‘ ajdodlar qoldirgan boy madaniy, ma’naviy merosni o‘rganish sharafiga muyassar bo‘ldi, milliy g‘ururi qayta tiklandi; respublikada ilm-fan, jumladan pedagogika fani yangi taraqqiyot bosqichiga ko‘tarilmoqda; o‘tmishdagi pedagogik tafakkur daholarining shuhratini tiklash, ularning g‘oyalarini xalq hayotiga tadbiiq etishdek ulug‘ ishlar amalga oshirilmoqda.

Ta’limni axborotlashtirish boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari kasbiy-mutaxassislik sifati va ularni tayyorlash darajasiga yangi talablarni qo‘yadi. Ta’limni takomillashtirish mazmunida bo‘lajak o‘qituvchini tayyorlash sifati integral ko‘rsatkichlariga insonning egallagan bilim va tajribalaridan ma’lum vaziyatlarda foydalanish malakasini xarakterlovchi kasbiy-mutaxassislik kompetentligi sifatida qaralishi lozim. O‘qituvchining kasbiy-mutaxassislik kompetentligi o‘z ichiga turli

tarkibiy, jumladan, axborotli qismlarni ham oladi. Ma'lumki, innovatsion ta'lim sharoitlarda o'qituvchining axborot ko'nikmasi uning professional pedagogik kompetentligini aniq belgilaydi. Bo'lajak boshlang'ich sinflar o'qituvchisining axborot ko'nikmalarini shakllantirish uning axborot qobiliyatining asosiy komponentlari (turli xil axborot faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq kasbiy yo'naltirilgan ko'nikmalar) va maxsus komponentlar bloklari ishlab chiqilishini nazarda tutadi, mazkur tadqiqot ishida ular birgalikda maxsus axborot kompetentligi sifatida belgilangan.

O'qituvchi axborot kompetentligining shakllanishi yoki rivojlanishi muammosi ko'plab olimlar: O. B. Zayseva, N. V. Kisel, A. M. Orobinskiy, M. M. Pshukova, O. G. Smolyaninova dissertatsiya tadqiqotlarida ko'rib chiqilgan. G. G. Brusnitsina, T. V. Dobudko, S. A. Zayseva, I. V. Ryaxinova, A. A. Uzdenova va boshqalar tadqiqotlari boshlang'ich sinflarda kompyuterdan foydalanib dars mashg'ulotlari o'tishga tayyorlash masalasiga bag'ishlangan. Ularda boshlang'ich ta'lim nazariyasi va metodikasida informatika kursini o'qitish yoki bo'lajak boshlang'ich sinflar o'qituvchilarini tayyorlashda o'quv jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish masalalari o'rganilgan.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisini axborot kompetentligini rivojlantirishda quyidagi vazifalarni amalga oshirish lozim deb hisoblaymiz:

- bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisini kasbiy-mutaxassislik tayyorgarligiga zamonaviy talablar va o'qituvchining professional malakasining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri sifatida axborot ko'nikmalarini, shu bilan birga, bo'lajak boshlang'ich sinflar o'qituvchisining axborot kompetentligini oshirishning aniq maqsadga yo'naltirilgan jarayonlarni tashkil etish;

- yangi axborot texnologiyalari sohasidagi taraqqiyot, ularning didaktik imkoniyatlari kengayib borayotganligi va o'qituvchilarni boshlang'ich ta'lim jarayonida ularni to'g'ri yo'naltirish.

Shunday qilib, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'z kasbiy faoliyatida yangi axborot texnologiyalaridan to'g'ri foydalanishi malakasini shakllantirish kerakdir.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining axborot kompetentligini rivojlantirish asosini: insonparvarlashtirish va shaxs rivoji g'oyalari, rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi o'qitish konsepsiyasi, o'qitish jarayonini tashkil etishga shaxsiy-faoliyatli yondashuv konsepsiyasi, pedagogik hodisalarni va uning qo'llanilishini o'rganishga tizimli yondashuv tashkil etadi.

Bugun ta'lim har tomonlama takomillashib zamon talablari asosida tashkil etilishi va yuqori samara berishi kabi masalalarni qo'ymoqda. Ta'limning sifati va samarasi faqatgina tayyorlangan kadrlarga ko'ra belgilanadi. Shu asosida kadrlarni tayyorlashga zamonaviy talablar asosida yondashish maqsadga muvofiqdir. Kompetentli yondashuv tushunchasi, o'rganilishi, o'rni va ahamiyati. Kompetensiya iborasi zamonaviy adabiyotda keng qo'llaniladigan termin bo'lib, ta'lim, xodimlarni tanlash, mehnat natijasini baholash, ta'limning muvaffaqiyatligi, professional yo'naltirilganlik va shu kabi masalalarni qamrab oladi. Bugungi kunda ma'no nuqtai nazaridan oxirgacha aniqlashtirilmagan deb hisoblanadi. 1970-yillarda ko'pgina G'arb Yevropa davlatlarida paydo bo'lib, bunda kompetentlik professional tayyorgarlikning yangi yo'nalishini ko'rsatadigan bo'ldi. «Kompetentlik» termini ta'lim faqatgina individual, texnik yoki tajribaviy bilim va qobiliyatni egallash masalalari bilan bog'liq bo'lib qolmay, balki individ shaxsni keyinchalik rivojlantirishga baza bo'lib, xizmat qila oladigan qobiliyat va ko'nikmalari majmuasini ifoda qiladi. Ammo bu g'oya barcha Yevropa davlatlarida turlicha o'z ifodasini topdi. Masalan, Germaniyada 1980-yillardan boshlab, «professional faoliyatda kompetentlik» iborasi boshlangich professional tayyorgarlik mobaynida erishilishi shart bo'lgan maqsadni ifodalagan. Bu o'qitish kursi o'zaro bog'liqlik, texnik kompleks va umumiy bilim yig'indisidan iborat bo'lib, bu bitiruvchiga turli ish joylarida ishni davom ettirish imkonini berar edi. Bu umumiy malaka o'zgarishsiz qolishi mumkin emas, u rivojlanib borishi kerak, chunki individ va jamiyat manfaatlaridan kelib chiqqan xolda mehnat dunyosining talablari va shartlari ham o'zgarib turadi.

Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash tizimida yondoshuvning joriy qilinishi munosabati bilan sodir bo'layotgan o'zgarishlar;

Maktab ta'limi tizimida axborotlashgan jamiyatning talablari bilan yuzaga kelayotgan va pedagogik ta'lim tizimiga nisbatan ilgari boruvchi xarakterga ega bo'lgan o'zgarishlar. Boshlang'ich maktab ta'lim jarayonida yangi axborot va telekommunikatsion texnologiyalarning qo'llanilishi o'quv jarayonini faqat axborot-texnologik va Kompyuterli-metodik qo'llash vositalarining mavjudligini ta'lim jarayonida axborot texnologiyalaridan samarali foydalanuvchi ma'muriy va muxandis-texnik kadrlarni tayyorlashnigina emas, balki boshlang'ich sinflar o'qituvchilarining ham maxsus tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini ham talab etadi.

Ta'lim jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarni faol qo'llash, ta'lim samaradorligini oshirish, tahlil qilish va amaliyotga joriy etish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir. O'quvchilarning fikr doirasi, ongi, dunyoqarashlarini o'stirish, ularni erkin tinglovchidan erkin ishtirokchiga aylantirmoq nihoyatda muhimdir. O'qituvchi darsda boshqaruvchi o'quvchilar esa, ishtirokchiga aylanmog'i lozim. Ana shu vazifani uddalashda innovatsion faoliyat ustunligi ko'p qirrali samara keltiradi. Boshlang'ich ta'lim umumta'lim maktablarining bosh bo'g'ini bo'lgani sababli ana shu jarayonda o'quvchi shaxsining mukammal rivojlanib borishiga ko'proq e'tibor berish lozim. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mas'uliyatlari cheksizdir. Ular maktab ostonasiga endigina qadam qo'ygan o'quvchilarni maktab hayotiga ko'niktirib, zamonaviy bilim olishlariga yo'l ochib beradilar. Bolalarning o'qishga munosabatlari, aqliy salohiyatlari ana shu davrda shakllanadi. Bu ham boshlang'ich sinf o'qituvchilarining vazifasi mas'uliyatli ekanligini ko'rsatadi. Pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslar tashkiliy usullari, o'tkazish metodlariga ko'ra o'quvchi ehtiyojiga mos tushishi kerak. Chunki bunday darslar bola ruhiyatiga yaqinroq bo'ladi. O'quvchilarning o'quv materiallarini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqish, xohish va istaklarini qo'zg'otish asosida maqsadga erishish motivatsiya bo'lib, bu o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro ichki yaqinlashuvidir. Boshlang'ich sinfda ta'lim jarayonida o'quvchilarning o'qish motivini rivojlantirish katta ahamiyatga ega. Chunki motiv o'quvchilarni ta'lim jarayoniga qiziqtiradi, darsga faol qatnashishga, bilimlarni egallashga undaydi.

ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. *Ulmasovna D. M., Qizi R. M. Q. BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHILARINING IJTIMOIIY-MADANIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH //TA‘LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2023. – T. 3. – №. 4. – C. 52-56.*

2. *Abduraxmonova D. BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHILARI KASBIY KOMPETENTLIGINING TASHKILIIY TUZILMAVIY SHAKLI HAQIDA MULOHAZALAR //Boshlang‘ich ta‘limda innovatsiyalar. – 2020.*

3. *Begmurzayevich D. B. et al. BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHILARIDA REFLEKSIV MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARI //INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL. – 2022. – T. 3. – №. 6. – C. 154-160.*

4. *Raxmatova F.A., Sheranova M.B., Boyto‘raeva N.I., Uktamova U.S. “Pedagogik kompetentlik”, - darslik. “ ILM ZIYO ZAKOVAT”. T-2021*